

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

IXTIRO VA SANOAT NAMUNALARINI
XORIJIY PATENTLASH

TOSHKENT – 2024

Ixtirolarni xorijiy patentlashning asosiy tamoyil va mexanizmlari. Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij Konvensiyasi tartiblari

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, patent qat'iy chegaralangan hududlarda amal qiladi. Shuning uchun ixtironi (shuningdek sanoat mulkining boshqa obyektlarini) xorijda himoya qilish uchun xorijiy patentlashni amalga oshirish, ya'ni ularni boshqa davlatlarda patentlash zarur.

Xorijiy patentlash, odatda, quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

Tovar va texnologiyalar eksportini himoya qilish uchun. Eksport mamlakatida patentlash eksport qiluvchi firmaga ushbu bozorni o'z tovar (buyum)lari bilan mustahkam egallashini ta'minlaydi. Odatda, ixtiro yoki sanoat namunasi o'z aksini topgan buyumlarning sotilishi boshlanishidan oldin u yerda analog patentlar mavjudligi, bozor bo'shligini aniqlash uchun patent tadqiqotlari o'tkaziladi. Bu tadqiqotlarning natijalariga qarab patentlar uchun tegishli talabnomalar beriladi. Agar patent (yoki patentlar) olinsa, ushbu eksport qiluvchi uchun tegishli buyumlar, uskunalar va boshqa tovarlarni to'siqsiz yetkazib berish ta'minlanadi, raqobatchilar uchun esa bozor yopiq bo'ladi.

Tovarning uch ajralmas tarkibiy qismi: ichki mohiyati (ixtiro uchun patentni himoya qiladi); tashqi ko'rinishi yoki dizayn (sanoat namunasi uchun patent); shuningdek savdo imiji (ro'yxatga olingan tovar belgisi) himoyalangan tovar muvaffaqiyatli eksport qilinishi mumkin.

Litsenziyalarni boshqa firmalarga sotish uchun. Bu maqsadda patentlash firma eksportga tovarlar ishlab chiqarishni tashkil qilish uchun o'z ishlab chiqarish resurslariga yoki mahsulot sotiladigan mamlakatda qo'shma korxonalar ochish imkoniyatiga ega bo'lmagan holatlarda amalga oshiriladi. Bunda ixtiro yuqori potensial tijorat qiymatiga ega va xorijiy firmalar undan foydalanish uchun litsenziyani sotib olishga tayyor bo'lishi mumkin.

Ixtirolarni xorijiy muhofazalashni tashkil qilishda ikkita umum qabul qilingan yondashuv mavjud:

Ixtirolarning patent himoyasi;

Ularni tijorat siri, "nou-xau" sifatida saqlab qolish.

Shak-shubhasiz, puxta tashkil etilgan patent himoyasi ixtirolarni himoya qilishning eng ishonchli usuli hisoblanadi. Lekin "nou-xau"ning saqlanib qolinishi quyidagi vaziyatlarda iqtisodiy jihatdan maqbul bo'lishi mumkin:

Ixtiro tarkibi yakuniy mahsulotni tahlil qilish yo'li bilan ishonchli aniqlanishi mumkin bo'lmagan kimyoviy modda hisoblanadi. Bunday holatda axborotning ixtiyoriy ochilishi maqsadga muvofiq emas, chunki qonunni

buzganlarni aniqlash qiyin bo'ladi. Bunday "nou-xau"dan foydalanishning yorqin misoli o'z ichimligining sirini 100 yildan oshiqroq (aniqrog'i - 1886 yildan) vaqtdan beri maxfiy saqlayotgan "Koka-Kola" firmasi hisoblanadi;

"nou-xau"ning mohiyati ishlab chiqarish sirlari, chunonchi, muayyan rejimlar, parametrlar, foydalaniladigan moddalar va har qanday mahsulotni tayyorlashning boshqa texnologik nozik jihatlari) hisoblanadi. "nou-xau"ning ushbu turi jahon amaliyotida juda keng qo'llaniladi va odatda, bunday "nou-xau"lar o'ziga hos patentlangan ixtirolarga maxfiy ilova hisoblanadi.

Talabnoma beruvchi patent uchun talabnomani tayyorlashda ixtironing qaysi qismini patentlash, qaysi birini esa tijorat siri sifatida saqlab qolishni tanlashdagi oqilona muvozanatga har doim rioya qilishi kerak.

Yangi ixtirolarning tez-tez paydo bo'lishi, demak, raqobat kurashining kuchayishi fan-texnika rivojining hozirgi zamondagi o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Shu munosabat bilan talabnoma beruvchi (ixtirochi yoki uning ish beruvchisi hisoblanadigan firma) oldida turgan asosiy vazifa raqobatchilarni ortda qoldirish maqsadida patentlash uchun zarur barcha jarayonlarni puxta, tez va aniq amalga oshirishdan iborat.

Dunyoning ixtiyoriy mamlakatida patentlash muayyan rasmiy talablarga bo'ysunadi va quyidagi ish turlarini o'z ichiga oladi:

Avvalo, O'zbekiston Respublikasi patenti (yoki dastlabki patenti)ni olish uchun talabnoma berilishi kerak. Bu qoida milliy xavfsizlik talablari bilan bog'liq. Xorijiy patentlashni talabnoma berilgandan boshlab uch oydan keyin boshlash mumkin va buning uchun hech qanday ruxsatnoma talab qilinmaydi;

Deyarli barcha xorijiy patent idoralari (O'zbekiston tegishli ikki yoqlama bitimlar imzolangan mamlakatlar, masalan, Rossiya bundan istisno) xorijiy talabnoma beruvchilardan talabnomalarni bevosita qabul qilmaydi. Talabnoma berish va patent olish va uni kuchda saqlab qolish bo'yicha barcha ishlarni faqat ushbu mamlakatlarning rasmiy patent vakillari orqali yuritish mumkin.

Bunday talablar har bir mamlakatda talabnomalarni tuzish va berish qoidalari o'ziga xos xususiyatlarga egaligidan kelib chiqqan. Malakali mutaxassislar orqali ish yuritish talabnoma beruvchilarning talabnomalarni to'g'ri rasmiylashtirishiga imkon beradi, bu ushbu mamlakat Patent idorasining ishini osonlashtiradi, demak talabnoma beruvchi uchun ham foydali bo'ladi, ya'ni talabnomalarni ko'rib chiqish muddatlari qisqaradi, rasmiy so'rovnomalar bo'lmaydi va hokazo.

Shuning uchun talabnoma beruvchi ishlanmasini patentlash ko'zda tutilgan xar bir mamlakatda o'zi uchun ishonchnoma bo'yicha uning nomidan ish ko'radigan va Patent idorasi bilan ish yuritadigan patent vakilini topishi lozim. Odatda, ro'yxatga olingan patent vakillarining ro'yxati patent idoralari tomonidan rasmiy patent byulletenlarida muntazam nashr qilinadi, shuningdek ularni turli patent ma'lumotlar bazasidan,

Internetdan topish mumkin; nashr qilingan patentlar tahlilidan hamda xorijiy "hamkasblar" bilan aloqalari mavjud O'zbekistonning patent vakillari orqali muayyan vakil va uning ishi to'g'risida axborot olish mumkin va hokazo;

Talabnoma materiallarini patent olish uchun talabnoma berilayotgan mamlakatning tiliga tarjima qilish hamda o'sha davlatning milliy patent qonunchiligiga muvofiq talabnoma hujjatlari (ariza, tavsif, formula, chizma va boshqalar)ni tayyorlash uchinchi bosqich hisoblanadi. Tarjima va hujjatlarni tayyorlash ishlarini, odatda, patent vakillarining o'zi bajaradi. Albatta, agar talabnoma beruvchi zarur malakaga ega bo'lsa, u bu hujjatlarni, o'zi mustaqil ravishda tayyorlashi mumkin, bu patent vakilining ishini osonlashtiradi, lekin uning o'rnini bosa olmaydi.

Talab qilinayotgan hujjatlar (talabnoma beruvchining ishonchnomasi bo'yicha ish yurituvchi) patent vakili tomonidan tayyorlanganidan keyin tegishli

mamlakatning patent idorasiga talabnoma beriladi. Bunda talabnoma beruvchi patent vakilining xizmatlari uchun belgilangan milliy patent bojlari va gonorarlarini to'lashi kerak. Patent bojlarining hajmi xar bir davlatda tegishli me'yoriy hujjatlar bilan belgilanadi, patent vakilining gonorarlari esa, odatda, kelishuv asosida bajarilgan ishlar hajmiga qarab aniqlanadi. Bir mamlakatda ixtiro uchun talabnoma beruvchining o'rtacha xarajatlari bir necha ming dollarni tashkil qilishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, bir necha mamlakatda patentlash ancha moliyaviy xarajatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, bunda bir vaqtning o'zida patentni olish (talabnoma berilayotgan ixtironing patentga layoqatlilik mezonlariga mos kelishi)ga va ixtironing tijorat jihatidan ahamiyatga ega bo'lishiga qat'iy kafolatlar mavjud bo'lmaydi. Shu munosabat bilan xorijiy patentlash tartiblarini to'g'ri tanlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Talabnoma beruvchi (mahsulotni eksport qiluvchi)ning strategik manfaatlaridan kelib chiqqan holda patentlash taktikasini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

Alohida mamlakatlarda tanlab patentlash. Agar mahsulotni bir necha muayyan mamlakatga eksport qilish (yoki litsenziyani sotish) rejalashtirilgan bo'lsa, masalan, mahsulot yuqori texnologik uskuna, maxsus agregat, stanok va hokazo bo'lsa, bunday taktika qo'llaniladi.

Mintaqaviy patentlash. Ya'ni ixtiro yagona sotish bozoridan iborat butun geografik mintaqada patentlanadi. Masalan, muayyan mintaqada foydalanilishi mumkin bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasidagi ixtirolar (mashinalar, o'g'itlar va hokazo) va boshqalar uchun mintaqaviy himoya zarurdir.

3. Xalqaro miqyosda keng patentlash. Mamlakatlar soni ko'pincha 5-10 ta va undan ko'pni tashkil qiladi. Odatda, xalqaro miqyosda keng iste'mol tovarlariga tegishli ixtirolar patentlanadi. Masalan, tish pastalari, kir yuvish kukunlari, soqol olish asboblari, maishiy elektrotexnika va hokazo.

Ko'rsatilgan patentlash taktikalariga arab xorijiy patentlashning quyidagi tartiblarini qo'llash lozim:

1. Tanlab patentlashda sanoat mulkini muhofaza qilishda asosan Parij Konvensiyasiga muvofiq an'anaviy tartibdan foydalaniladi. Bu tartibga bevosita patentlash mamlakatlarida milliy qonunchilikning talablariga muvofiq ixtirolarni muhofaza qilishni so'rash hosdir.

Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij Konvensiyasi tartiblaridan foydalanish cheklangan (ko'p bo'lmagan) mamlakatlarda patentlashda eng maqbul tartib hisoblanadi.

Ilgari ko'rsatib o'tganimizdek, biror-bir mamlakatda patent uchun talabnoma berishda bir qator tadbirlarni bajarish, xususan, malakali patent vakilini topish, talabnomani xorijiy tilga tarjima qilish, patentlash tartiblari uchun moliyaviy resurslarni topish zarur. Bundan tashqari, patentlashning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masalaning o'zini xam batafsilroq ishlab chiqish kerak bo'ladi, chunki ixtiro tijorat qimmatiga ega bo'lmashligi va xarajatlar behuda bo'lishi mumkin.

Ko'rsatilgan tartiblarni bir vaqtning o'zida bir necha mamlakatda bajarish ancha ko'p mehnat talab qiladigan vazifa hisoblanadi, talabnoma berishdagi har qanday orqaga surishlar (raqobat talabnomasini berishda) ixtiro yangiligining

yo'qolishiga olib kelishi mumkinligi sababli talabnoma beruvchilar uchun ixtiro ustuvorligi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Parij Konvensiyasi tartiblariga muvofiq talabnoma berish afzalliklari shundan iboratki, Parij Konvensiyasi ishtirokchi davlatlaridan biri (masalan, O'zbekiston)da to'g'ri rasmiylashtirilgan talabnoma bergan talabnoma beruvchi bu davlatlarining har birida xuddi o'sha ixtiroga talabnoma berish uchun bir yil (12 oy) davomida konvensiya ustuvorligi huquqidan foydalanadi (qayd etib o'tamiz, sanoat namunalari va tovar belgilari uchun ustuvorlik huquqi 6 oyni tashkil etadi). Ustuvorlik huquqi boshqa davlatlarda berilgan keyingi talabnomalar birinchi talabnomani berish sanasi bilan qabul qilinishini bildiradi, ya'ni ular o'sha oraliqda berilgan boshqa talabnomalardan ustuvorlikka ega bo'ladi va nashrlar, boshqa talabnomalar yoki o'sha oraliqda ro'y bergan boshqa harakatlar (masalan, ko'rgazmalar) bilan qoralanishi mumkin emas.

Bu qoidaning muhim amaliy afzalliklaridan biri shundan iboratki, agar talabnoma beruvchi ixtironi bir necha mamlakatda muhofaza qilishni xohlasa, talabnomalarni bir vaqtning o'zida berishga majbur emas, chunki u qaysi mamlakatda muhofaza olish to'g'risida qaror qabul qilishi, shuningdek huquqiy muhofazani ta'minlash uchun zarur chora-tadbirlarni ancha puxta tashkil qilishi uchun uning ixtiyorida 12 oy bo'ladi.

Ustuvorlik huquqini tasdiqlash uchun O'zbekiston Patent idorasi tomonidan tasdiqlangan birinchi talabnoma nusxasini taqdim etish talab qilinadi. Birinchi talabnomani rad etish yoki chaqirib olish u bo'yicha konvensiya ustuvorligi belgilanishi uchun to'siq hisoblanmaydi.

Parij Konvensiyasiga ko'ra birinchi va keyingi talabnomalarni turli shaxslar berishi mumkin (albatta, talabnoma o'g'irlanmasdan boshqa shaxsga qonuniy yo'l bilan berilgan bo'lsa), lekin birinchi va keyingi talabnomalar predmeti mos kelishi shart.

Parij Konvensiyasi ko'plik yoki qisman ustuvorlik bilan talabnoma berilishiga ham ruxsat beradi.

Ko'plik ustuvorligi bitta texnik yechimga taalluqli, hatto turli mamlakatlarda berilgan, keyin esa Konvensiyaning boshqa ishtirokchi davlatiga berish uchun bitta umumiy talabnomaga birlashtirilgan ikki yoki undan ko'p talabnomaga nisbatan yuzaga keladi. Bunda ustuvorlik huquqi turli ustuvorlik sanalariga ega bo'lgan bunday talabnomaning alohida qismlari uchun yuzaga keladi. Bu ustuvorlikni tasdiqlash uchun keyingi talabnoma formulasi tegishli bandining belgilari barcha oldingi talabnoma materiallarining mazmunida (lekin aynan ularning formulasida bo'lishi shart emas) ochib berilgan bo'lishi yetarlidir.

Qisman ustuvorlik keyingi talabnomada ixtiro elementlari ko'rsatilgan, lekin oldingi talabnomalarda ko'rsatilmagan xollarda yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatda dastlabki ustuvorlik faqat mohiyati birinchi talabnomada ochib berilgan formula bandlariga nisbatan belgilanadi. Formulaning yangi bandlari ushbu keyingi talabnoma berilgan sana bo'yicha ustuvorlik sanasiga ega bo'ladi. Parij Konvensiyasi ko'plik yoki qisman ustuvorlik so'ralgan hollarda, agar bunday talabnoma ixtiro birligi talablarini buzmasa, hech qaysi ishtirokchi mamlakat ustuvorlik berish yoki talabnomani rad etishi mumkin emasligini belgilaydi.

Yana shuni qayd etib o'tamizki, Parij Konvensiyasi yoki ekspert qaroriga ko'ra, yoki talabnoma beruvchi tashabbusi bilan talabnomalarni bo'lish imkonini xam ko'zda tutadi, bunda uning har bir qismi patentlash mamlakatining qonunchiligi bilan belgilangan patentga layoqatlilik shartlariga mos kelishi kerak;

2. Mintaqaviy patentlashda tegishli mintaqaviy bitimning bir necha ishtirokchi mamlakatida amal qiladigan mintaqaviy patent olish maqsadida talabnomani mintaqaviy patent idorasiga berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib Yevropa patent idorasi (YEPI), Yevroosiyo patent idorasi, Afrika intellektual mulk tashkiloti (OAPI) va Afrika ingliz tilida so'zlashuvchilari uchun sanoat mulki tashkiloti (ARIPO) bunday idoralar hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, milliy talabnoma beruvchilar, hozirgi vaqtda ixtirolarni xorijda kam patentlaydilar. Bunday past ko'rsatkichlar asosan talabnoma beruvchilarda patentlash uchun zarur valyuta resurslarining yo'qligi, shuningdek patent bilimlari darajasining pastligi hisoblanadi, bu ularga xorijiy bozorlarga chiqishda turli tartiblarning barcha afzalliklaridan uz iqtisodiy manfaatlarida foydalanishga imkon bermaydi. Odatda, faqat haqiqatda xorijiy bozorlarda amal qiladigan, ishbilarmon hamkorlarga ega bo'lgan yirik mahsulot eksport qiluvchilar va boshqalar xorijiy patentlashga jur'at qiladilar. Biroq, g'arb amaliyoti ixtirolarni xorijda to'g'ri muhofazalash muvaffaqiyatli faoliyatning natijasi emas, balki uning sababi ekanligini ishonarli ravishda isbotlab kelmoqda.